

KOMMUNIKATIV YONDASHUV VA INTERAKTIV METODLAR YORDAMIDA KURSANTLARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

*Jamoat xavfsizligi universiteti
Tillarni o'rganish kafedrasi o'qituvchisi
Sh.I.Musayeva*

Vatanimizda chuqur ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirilayotgani, Dunyo miqyosida davlatimiz obro'sining oshishi va respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni mohiyatan yangilab berdi. Shu jumladan, 2017 yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 yilga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risi"da PF-4947 sonli farmonini qabul qilinishi va ushbu strategiyaning IV bo'limining 3-bandida ham aynan respublikamizda ta'lim jarayonini yangitdan shakllantirish haqida alohida ta'kidlab o'tilgan. Fuqorolarimizni, ayniqsa, yosh avlodni chet tillarida o'qitish mamlakatimizda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalaga aylandi. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Shu vaziyatdan kelib chiqqan holda, respublikada ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy vaziyat rasmiy davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek tilini boshqa zamonaviy, dunyoviy xorijiy tillar bilan qiyosiy-tipologik jihatdan tizimli o'rganishni taqazo etadi.

Bugungi kunda chuqur bilimga ega, zamonaviy fikrlaydigan yetuk ofitserlarni tayyorlash va tarbiyalash maqsadida oliy harbiy bilim yurtlarida ham bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Harbiy bilim yurtlarida tahsil olayotgan kursantlarni o'z kasbiga tegishli xorijiy tillardagi adabiyotlarni, internet ma'lumotlarni o'qib tushinishi, muloqot qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, xorijlik mutahassislar bilan fikr almasha olish ustivor maqsadlardan biri hisoblanadi.

Madaniyat va muloqot sohasining boshqa jihatlari kabi muloqot kompetensiyasi tushunchasining amalda namoyon bo'lishi turli xil e'tiqodlar, ijtimoiy vaziyatlar, bilimlar, madaniyatlararo farqlar natijasida turli madaniyatlar o'rtasida farq qiluvchi har xil qadriyatlar bilan izohlanadi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi insonning turli madaniy kelib chiqishi bilan bog'liqligi va madaniyatlararo dialogning ma'nosi nutq jarayonida insonning qobiliyatini jalb qilishi aniqlangan. Madaniyatlararo o'zaro munosabatni foydali qilishda og'zaki va yozma nutqdan unumli foydalanish va turli xil madaniy kelib chiqishlarga mosligi hamda ma'nosini chiqarib berish qobiliyatini talab qiladi.

So'nggi yillarda turli xil madaniyat vakillari va davlatlar o'rtasida har xil noqulayliklar, o'zaro majorolar kelib chiqmoqda, dunyo katta bo'lsada, madaniyatlar bir-biriga bog'liqdir. Shuning uchun, tilshunos olimlar Sitaram va Kogdellar "butun dunyo xalqlari madaniyatlararo muloqotni o'rganishlari kerak" deb e'lon qildilar[1]. Ularning fikricha, buning yordamida boshqa madaniyat vakillari haqida ko'proq ma'lumot olish muhimligini ko'rsatadi. Chunki inson tildan muloqot jarayonida bir-biridan faqatgina muloqot uchun emas, balki biror ma'lumot olish uchun ham aloqaga kirishadi. Turli madaniyat vakillari o'zaro muloqotga kirishganda ular o'zaro ko'proq ma'lumot olish, o'rganish va tahlil qilish hamda taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Chet tili o'qitishda uch muhim omilga e'tibor qaratish lozim. Bularga til (til hodisalari), nutq hamda nutqiy faoliyatni kiritish mumkin. Ular nutqiy muloqotni amalga oshiruvchi muhim vositalardir. Nutqiy malakalarni hosil qilish nazariy jihatdan faoliyat nazariyasi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev) va aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga (P.Y.Galperin) asoslangan[2]. Ushbu nazariyalar chet til vositalari yordamida nutqiy muloqotni amalga oshirishni ta'minlovchi nutqiy malakalarni shakllantirishga qaratilgan kommunikativ metodning kelib chiqishida ham muhim rol o'ynaydi. Kommunikativ metodning asosiy prinsiplaridan biri o'qitish jarayonini nutqqa yo'naltirilgan holda tashkil qilishdir. Bu esa o'quv jarayonini maksimal darajada nutqiy vaziyatlarga asoslangan holda tashkil qilishga erishish zarurligini taqozo etadi, chunki nutqiy vaziyatlar kursantlarni faollashtiribgina qolmasdan o'quv jarayonidagi nutqiy muloqotni tabiiy nutq jarayoniga yaqinlashtiradi.

Kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv - ta'limning rivojlantiruvchi, funksional va kommunikativ xususiyatlariga ega bo'lib, ta'lim jarayonida bilish faolligini oshirishga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida mazkur yondashuv kursantlarda refleksiya, o'z-o'zini rivojlantirish, namoyon etishga ko'maklashadi; chet til ta'limini madaniyatlararo muloqot sifatida tashkil etishga; dars jarayonida o'qituvchi kursantlarning o'zaro teng huquqli ishtirokchi sifatida o'zini namoyon etishlarini ta'minlaydi; ta'limning interaktiv shakllarini qo'llash; kursantlarda yangi til malakalari, sotsio-madaniy, ijtimoiy-madaniy hamda madaniyatlararo muloqotga oid bilimlar, amaliy malakaviy ko'nikmalarni mustaqil egallashni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi.


Kursantlar o'zga madaniyatni chet tilida ifodalangan rasmlar, matnlar, audio va video yozuvlar yoki virtual imkoniyatlar orqali tasavvur etgan holda o'rganadi. O'zga harbiy madaniyat to'g'risida axborotni qabul qilish jarayonida birvarakayiga tanish ma'lumotni qabul qilish asosiy rol o'ynaydi, chunki ta'limning maqsadi yangi ma'lumot va taassurotlarni tanish bo'lgan ma'lumotga tayanib, bir-biri bilan bog'lab o'rganish orqali bilimlarni o'stirishdan iborat. Mazmun va metodlar shunday tanlanishi

lozimki, kursant o'zidagi yangiliklarni o'rganishga bo'lgan tabiatan qiziqishini saqlab qolishi va yanada kuchaytirishi hamda o'quv jarayonida o'zini va o'zga xalqni idrok etish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. O'quv materiallari shunday tanlanishi kerakki, kursant quyidagilarni bajarish imkoniga ega bo'lishi lozim:

- tanish narsalarda yot jihatlarni, notanish narsalarda esa tanish jihatlarni kashf etishi,
- o'zga narsani o'zga narsa sifatida tan olishi;
- o'zga harbiy madaniyat bilan uchrashganda yuzaga keladigan ishonchsizlik va hadiksirashni boshqara olishni o'rganishi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini turli interfaol metodlar yordamida ham rivojlantirish kursantlarda ko'p madaniyatli dunyoda hamkorlik qilishga tayyorlik va buni uddalay bilishni taxmin qiladi. Inglizabon mamlakatlar va jonajon mamlakatining madaniyatini o'rganish madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanilganda kursantlar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoni hal qilish yuzasidan og'zaki tarzda o'z fikrlarini bildirishadi va uni isbotlab berishga harakat qilishadi. Bu individual yoki guruh-guruh bo'lib ishlash orqali amalga oshiriladi. So'ngra har bir guruh liderlari o'zlari taklif qilgan muammoning yechimini prezentatsiya(taqdimot) qilib berishadi va ular birgalikda muammoning eng optimal variantini topishadi. Misol uchun quyidagi uch xil rasmdagi belgilarni tasvirlash va muommoni hal etish uchun avvalo guruhni 3 ta kichik guruhlarga bo'lib olamiz va har bir guruhga aynan mana shu uch xil rasmni tasvirlash va muommoni hal etish vazifasi qo'yiladi(1.-rasmga qarang)



1-rasm

Tayyorlanish uchun vaqt belgilab beriladi hamda ular guruh taqdimotini tayyorlaydi. Har bir guruh taqdimotidan so'ng muhokama qilinadi. Bu bilan esa guruhlar o'zaro muloqotga kirishadi. Agar fikrlar har xil bo'lsa, ular o'z fikrlarini isbotlashga harakat qiladi.

Yana bir boshqa topshiriq biror yaralangan harbiyga birinchi yordam ko'rsatish muommosini ham qo'yish mumkin. Bunda tanlangan material audio yoki video shaklda til sohiblari tomonidan yozilgan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta joy-makon, vaqt, sharoit, ob-havo, jihozlar va imkoniyat tushuntiriladi va ular shu imkoniyatlardan chiqib ketmagan holda qanday yordam berishni muhokama qilishlari

mumkin hamda eng optimal deb topilgan javob qabul qilinadi. Bu ham albatta kursantlarga real ma'lumotdan kelib chiqqan holda vaziyatdan chiqishda qanday so'z va iboralardan foydalanishni hamda muloqotni o'stirishga yordam beradi.

Taqdimot yordamida kursantlarga tarixiy buyuk sarkardalar Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Sobir Rahimov, Spartak, buyuk Aleksandr, Suvorov, Kutuzov, Yuliy Sezar, Napoleon, Horatio Nelson, Jeorg Smis Patton, Vinston Cherrhillarning rasmlari namoyish qilib, kursantlarni kichik guruhlarga bo'lib rasmlarga oid matnlar tarqatiladi va har bir guruh **"Venn"** diagrammasi yordamida uchtadan harbiy sarkardaning o'xshash va farqli tomonlarini topib jadvalni to'ldirib yozadilar, keyin har bir guruh o'zlarining ishlarini boshqa guruhlar oldida taqdim etadilar. Taqdimot jarayonida bu sarkardalarning yashash sharoiti, turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy faoliyati, harbiy faoliyati va qaysi davlatlar bilan ijtimoiy-madaniy, siyosiy aloqalar olib borgani haqida ham ma'lumot beriladi. Kursantlarga yuqorida qayd etilgan buyuk sarkardalar yashagan davrda xalqlarning ijtimoiy-madaniy hayotini yoritib berish vazifasi beriladi. bu jarayonda o'tmish va hozirgi vaqtdagi tafovutlarni ko'rsatib beradi. Bunda kursantlar boshqa tarixiy manbalarga murojaat qilishi ko'zda tutiladi. Vazifani bajarish jarayonida kursantlar **"Kichik guruhlarda ishlash"** orqali **"Opinion sharing"**(**Fikrlarni ulashish**) metodi yordamida ular o'zaro ma'lumot almashadilar.

Kursantlarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qituvchi faqat grammatik va fonetik xatolarni tuzatish bilan chegaralanmaydi. Kursantlar ingliz tilida gapiradigan madaniyatlarning milliy xususiyatlariga e'tibor berishlari kerak, kursantlarga turli tillarda gapirishning sabablarini tushunishlariga, shu bilan qatorda harakat qilishlariga va bunga munosabat bildirishiga va boshqacha aytmaslikka o'rgatishlari kerak. Muvaffaqiyatli muloqot qilish va umumiy tushunchaga erishish uchun kursantlar o'zlarining o'zligini yo'qotmasdan suhbatdoshining madaniy an'analarini bilishlari va hurmat qilishi kerak. Har qanday ish uchun kursantlarning e'tiborini madaniyatlarning farqiga va o'xshashligiga qaratib qo'yish kerak, ular samarali muloqot qilish va o'zaro tushunish uchun biz buni hisobga olishimiz kerak.

Ma'lum darajada bu, haqiqatdan ham shunday. Hatto chet tilidagi badiiy asarni anglash haqida gap borganida ham, kursant o'zgalarning yashash tarzi, udumlari, atrofidagi narsalari va h.k. tavsiflari bilan o'ziga nisbatan anchagina ishonch bilan tanishadi. Mafkuralar, ijtimoiy tuzum, tarixiy taraqqiyot, madaniyatdagi turli tafovutlar mavjud bo'lsa-da, biroq eslatib o'tilgan hodisa yoki obyektning asl mazmuni yoki qanday maqsadda ishlatilishini tushunish yoki hech bo'lmaganda aniqlab topishga yordam beruvchi o'xshatishlar, qiyoslashlar qilishga asos bo'la oladi. Ta'kidlab o'tish lozimki, realiyalarni izohlash ancha oson. Biroq izohlanmagan matn bilan to'qnash kelgan kursant bunday yengillikka ishonib, ahamiyatli tafsilotlarni payqamay qolishi

mumkin. Detallar, tafsilotlarga e'tiborsizlik, ular qanchalik ahamiyatsiz bo'lsin, mazmuni albatta qisman yoki to'liq yo'qotishlar bilan tushunishga olib keladi.

Hozirda madaniyatlararo muloqot sohasidagi tadqiqotlar til faoliyatida madaniy farqlarga duch keladigan odamlarning xatti-harakatiga va bu farqlarning natijalariga qaratilgan. Harbiy sohada chet tillarni o'rgatishning asosiy vazifasi turli xalqlar va madaniyat insonlari o'rtasidagi muloqot vositasi sifatida dunyo tillari va bu tillarni biladigan xalqlar madaniyati bilan uzviy birdamlikda o'rganishdir. Kursantlarda kommunikativ qobiliyatlarning maksimal darajada rivojlantirilishi chet tili o'qituvchilari oldida turgan asosiy, istiqbolli vazifadir. Buni hal qilish uchun tilni rivojlantirishga qaratilgan yangi o'qitish usullarini va kursantlarga samarali muloqot qilishni o'rgatish mumkin bo'lgan yangi ta'lim materiallarini o'rganish kerak. Bunday holatda, albatta, bir-biridan ajratib, eski usullardan voz kechish xato bo'ladi deb o'ylaymiz. O'qitish amaliyoti bilan sinovdan o'tgan va kerakli bo'lgan professional sharoitda zarur bo'lgan barcha kerakli narsalarni ehtiyotkorlik bilan tanlash kerak.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ingliz tili amaliy mashg'ulotlarini kursantlarni ijodiy va mustaqil fikrlashga undaydigan noan'anaviy interfaol metodlardan foydalanish va uni dars jarayoniga tadbiq etish darkor. Bunga misol tariqasida bir qancha interfaol metodlarni aytib o'tishimiz mumkin. GTM(grammar translation method), TPR(teaching physical response), CLT(communitive language teaching), Direct method, ADEPT(analogy, diagram, example, plain English, technical definition) method, Silent way, Audio-lingual, TBL(task based learning), CBL(content based learning), PPP(presentation practice product) va boshqalar. Bular ichida CLT metodi judayam samarali bo'lib, dars jarayonida yaxshi, o'zimiz kutgandek natijani beradi. Chunki biz ushbu metodni dars jarayoniga tadbiq etganimizda o'qituvchi emas o'rganuvchi nazorat qiladi, pedagogik jihatdan emas balki real hayotdan olinadi, albatta o'rganuvchida tanlov bo'ladi, bitta emas bir nechta javob bo'ladi hamda oxirida fikrlar jamlanadi. Bu esa kursantlarni fikrlashga, muloqotga o'rgatadi. ADEPT metodi ham kengroq mavzuni qisqacha yo'l bilan yoritishga yordam beradi. CBL metodi esa, ayniqsa harbiy sohaga judayam mos bo'lib, unda xarita bilan ishlanadi. [3]

Ushbu metodlarni dars jarayoniga tadbiq etish biroz murakkab bo'lsada, uni darsga aniq va to'g'ri yo'naltira olsak, samarasi ijobiy bo'ladi. Nofilologik yo'nalishdagi bilim yurtlarida til muhitini yaratib olish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Chunki atamalar bilan ishlash biroz mehnat va vaqt talab qiladi. O'qitish metodlari ichida interaktiv metodlar zamonaviy pedagogika talabiga mos metodlardan bo'lib, u 3 guruhga bo'linadi.

- 1) Grafik organayzerlar
- 2) Interfaol strategiyalar
- 3) Interfaol metodlar

Bularning har biri albatta o‘ziga xos yo‘nalishda ishlatiladi. Grafik organayzerlar vosita yoki ta’lim metodi vazifasini o‘tasa, strategiyalar o‘qituvchiga yo‘nalish olishni, interfaol metodda esa kimdir baholanishi shart bo‘ladi. Bular ichidan grafik organayzerlarga kiruvchi T-sxema, BBB, Sinkveyn, aqliy hujum va tushunchalar tahlili dars jarayonida juda ko‘p ishlatiladi. Ayniqsa, “Tushunchalar tahlili” metodi atamalarni o‘rganishda kursantlarga katta yordam beradi. Misol uchun, oldingi darsda o‘tilgan bir qancha harbiy atamalar jadvalning bir tomoniga yozib tarqatiladi, kursantlar jadvalning ikkinchi tomoniga ushbu so‘zlarning ma’nosini yozib chiqishadi.(1-jadvalga qarang)

1-jadval

Тушунча	Мазмуни
Battle	A major fight between armed forces during the course of a war
withdraw	If troops pull back they move away from contact with the enemy
Dig in	To prepare a defensive position
advance	To move forward towards the enemy

Kursantlarning o‘rganilayotgan amaliy chet tili fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma va elektron materiallardan foydalanish dars jarayonini faollashishi hamda kursantlarning fanga nisbatan qiziqishlarini uyg‘otadi.

Ushbu fanni o‘qitishda ta’limning zamonaviy metodlari: elekton pochta, chet el TV kanallari, virtual haqiqiylikni o‘zida jamlagan internetdan foydalanish, ya’ni elektron o‘quv adabiyotlari va ma’lumotlar bazasi bilan ishlash, internet tarmog‘idan maqsadli foydalanish bilim va ko‘nikmalarini hosil qilishda va rivojlantirishda katta samara beradi.

Yetuk ofitser kadrlarni tayyorlashda amaliy mashg‘ulotlarda kommunikativ metodining tarmoqlari bo‘lgan – loyihalash, masofaviy ta’lim, aqliy hujum, guruhli fikrlash, galereya, rotatsiya, dumaloq stol, Keys study, Jigsaw kabi interfaol usullardan foydalanish, kichik guruh musobaqalari, internet yangiliklari va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.[4]

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qilinayotgan keng ko‘lamli ishlar natijasida ta’lim va xususan chet tili sohasida biz erishayotgan muvaffaqiyatlar qisqa vaqt ichida berayotgan muhim samaralar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Eng xolis baho-chetdan berilgan baho. Ana shunday e’tiroflardan biri, mamlakatimiz ta’lim tizimini rivojlantirish darajasi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallagani bilan

ham faxrlidir. Bu esa davlatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan izchil islohotlarning, ta'lim-tarbiyaga qaratilayotgan yuksak e'tiborining amaldagi ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Song, Li. (2009). Teaching English as intercultural Education Challenges of Intercultural Communication". Intercultural Communication Research. Vol.1., 268p.
2. Гуркина А. Л. Развитие иноязычной коммуникативной компетенции как основная цель обучения иностранному языку // Молодой ученый. – Москва, 2015. – № 12. – С. 726-729.
3. Lightbown, Patsy, M., and Spada, Nina – How Languages Are Learned, 1993, Oxford University Press.
4. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi" D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva. T., 2013.33-bet.